

ARAB TILIDA IZOFA VA IZOFANING VAZIFALARI

*Nosirjonov Muhammadamin Sunnatjon o'g'li**Alfraganus universiteti**2-kurs arab filologiyasi talabasi**Tursunaliyeva M.A**Ilmiy rahbari:*

Egalik munosabatlarini ifodalashda ko'p qo'llaniladigan kelishik qaratqich kelishigidir. Qaratqichli birikma bevosita qaratqich kelishigi orqali hosil qilinib, ikki qismdan iborat bo'lishi yuqorida ta'kidlandi. Arab tilida qaratqichli birikma egalik ma'nosini ifodalovchi va keng qo'llaniluvchi morfologik-sintaktik tushuncha hisoblanadi. Arab tilida egalik ma'nosini ifodalovchi birikmalarning bari qaratqichli birikmalar hisoblanishi, morfologik-sintaktik usul orqali ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat birikmalar yasalishi va bu birikmalarning keng qo'llanishi arab tili grammatikasida qaratqichli birikmalarning keng o'rganilishiga sabab bo'la oladi.

Qaratqichli birikma arab tilida إضافة "izofa" deb nomlanadi. Izofa ikki qismdan iborat: "muzof" (مضاف) va muzof ilayhi (مضاف إليه) (qaratqich va qaralmish).

Mustafa G'alayiniy: "Izofa – ikki so'z o'rtasidagi munosabat bo'lib, ikkinchi so'z doim qaratqich kelishigida keladi,"- deb aytadi⁴⁵.

Ahmad al-Hashimiy: "Izofa bir otning boshqasi bilan egalik munosabati bo'lib, boshqasi doim qaratqich kelishigida kelishidir",- deb yozadi⁴⁶.

Abdurahmon ibn Muhammad al-Anbariy: "Izofa necha ma'noda bo'ladi desa, ikki ma'noli bo'ladi: biri ل (ning, qarashlilik), ikkinchisi من (oidlik) dir.

(الغلام لزيد) Zaydning ishchisi - غلام زيد

ثوب خز (ipakdan ishlangan kiyim) ipak kiyim", - deya tushuntiradi⁴⁷.

Muzof va muzof ilayhi bo'lib kelgan ikki ot o'rtasida qaratqich kelishigi bu ikki so'zni sintaktik bog'lashga xizmat qiladi.

Qaratqichli birikma, ya'ni izofaning 4 turi mavjud. Bu bo'linish qanday ma'no ifodalanishiga ko'ra sodir bo'ladi. Bular: لامية (tegishlilik), بيانية (oidlik), ظرفية (makon va paytga oidlik), تشبيهية (o'xshashlik).

لامية - tegishlilik. Bu izofa turi tegishlilik, egalik ma'nosini bildiradi. Bunday nomlanishiga sabab ل ko'makchisi bilan ma'nosi bir bo'lganligidir.

هذا الحصان لعلی 1 هذا حصان علي 2.

Birinchi gapda izofa holatida, ikkinchi gapda izofa o'rnida ل ko'makchisi bilan izofa vazifasida bo'lgani uchun izofasiz ifodalandi.

⁴⁵ مصطفى الغلاييني. جامع الدروس العربية. - دمشق: ناشر. 2010. - 647 ص

⁴⁶ احمد الخاشمي. القواعد الأساسية. القاهرة. 282.1993 - ص

⁴⁷ عبد الرحمن بن محمد الانبري. اسرار العربية. (بتحقيق محمد البيطار) - دمشق. 1958. - 279- ص

بيانية - oidlik. Izofaning bu turi bir jism ikkinchi bir jismdan ishlanganligi, bir jism ikkinchi bir jismning tarkibiy qismi ekanligini ifodalaydi.

Bu yog'och(dan ishlangan) eshikdir – هذا باب خشب

ظرفية - makon va zamonga oidlikni ifodalovchi izofaning bu turi ko'makchisi bildirgan ma'no bilan bir xil vazifani, ma'noni ifodalaydi.

Tundagi bedorlik (tun bedorligi) – سهر الليل

Og'ir kunlardagi do'st (og'ir kunlar do'sti) – صديق الأيام الغابرة

Ey qamoqxonadagi ikki hamroh (ey qamoqxonaning ikki hamrohi) –

يا صاحبي السجن

تشبيهية - o'xshashlik ma'nosini ifodalovchi izofaning bu turi ko'makchisi bajargan vazifani bajaradi.

انتثر لؤلؤ الدمع على ورد الخود Orazning guli ustida ko'z yoshning marvaridi tarqaldi.

Bu so'zma-so'z tarjima (shunday tarjima qilinsa, ma'noga putur yetishi, tarjima g'aliz chiqishi turgan gap. Hozirda ham ko'p trajimalardagi g'alizlik ayni shu kabi grammatik nozik jihatlarni bilmaslikda, chog'ishtirma arab tili grammatikasini yaxshi tushinmaslik sabab kelib chiqmoqda).

Gul yanglig' orazda marvarid kabi yoshlar tarqaldi.

Aniqlanmishning qanday so'z turkumi bilan ifodalanganiga ko'ra izofa birikmasi ikki xil bo'ladi:

1. Aniqlanmishi kimsa yo narsani bildiradigan ot yoki ot o'rnida kelgan so'z bilan ifodalangan izofa «haqiqiy» (ma'naviy – المعنوية) deb ataladi. Bunday izofada aniqlanmishga «ال» artikli qo'shilishi mumkin emas. Uning aniq yo noaniq holatda ekanligi aniqlovchining holati bilan belgilanadi. Masalan: بيت فلاح – dehqon uyi («فلاح» «so'zi noaniq holatda bo'lgani uchun» «بيت» «so'zi ham noaniq holatda»); بيت الفلاح – dehqonning uyi («الفلاح» «aniq holatda bo'lgani uchun» «بيت» «so'zi ham aniq holatda»).

2. Aniqlanmishi belgi, xususiyatni bildiradigan sifat, sifatdosh bilan ifodalangan izofa birikmasi «shakliy» (lafziy – اللفظية) deb ataladi. Bunday birikmadagi aniqlanmishning «ال» artikli bo'lsa aniq, bo'lmasa noaniq holatda bo'ladi.

Bo'yi baland (baland bo'lyi) kishi; الرجل الطويل القامة → رجل طويل القامة

O'quvchining qalami قَلَمُ تَلْمِيزٍ

Muhammadning daftari دَفْتَرُ مُحَمَّدٍ

Talabaning kitobi كِتَابُ الطَّالِبِ

Maktabning eshigi بَابُ الْمَدْرَسَةِ

Uyning devori حَائِطُ الْبَيْتِ

(المُضَافُ إِلَيْهِ): Muzofin ilayh ba'zan aniq, ba'zan noaniq holatda bo'lishi mumkin

Noma'lum talabaning daftari دَفْتَرُ طَالِبٍ

Aniq talabaning daftari دَفْتَرُ الطَّالِبِ

Izofaning birinchi qismi muzof (المُضَافُ) u siz aniq holat hisoblanadi. Muzof qismi uch kelishikdan birida bo'lishi mumkin:

Talabaning kitobi yangi كِتَابُ الطَّالِبِ مُنْتَعٍ

قَرَأْتُ مِنْ كِتَابِ الطَّالِبِ Talabaning kitobidan o'qidim
رَأَيْتُ كِتَابَ الطَّالِبِ talabaning kitobini ko'rdim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Т., 1981.
2. Ҳасанов М., Абзалова М. Араб тили дасрлари /Ўқув қўлланма. – Т., 2016.
3. Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. – Т., 1997.
4. مصطفى الغلايني. جامع الدروس العربية. – القاهرة-المنصورة: دار الغد الجديد، 2007.
5. <https://arabic.uz/maqolalar/1584-izofaa.html>
6. Bo'ronov, N. (2024). MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHDA VR LABORATORIYANING TASHKILIY MODUL MEKANIZMI. TAMADDUN NURI JURNALI, 5(56), 454-457.
7. Nazim, B. R. (2022). O 'zbek tilshunosligida takror va uning uslubiy xususiyatlari ba'zi adabiyotlarda, ayrim tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Erkin Vohidov ijodida doston janri alohida ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Erkin Vohidov "Nido" dostonining til xususiyatlari haqida so. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(3), 500-504.
8. Буронов, Н., & Шоғуломов, Д. (2020). PREVENTING INFORMATION HAZARDS IN ONLINE PUBLICATIONS ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ. ББК 60 Е244 Ответственный редактор: Гуляев Герман Юрьевич, кандидат экономических наук Е244, 24.
9. Bo'ronov, N. M., & Nurutdinova, M. (2019). XXI ASRDA DINIY EKSTREMIZM TAHDIDLARI. In WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS (pp. 289-290).
10. Сеитова, З. П. (2023). СОЦИАЛЬНЫЙ СТАТУС ЖЕНЩИН РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН. IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(2), 83-89.
11. Pirzhanovna, S. Z., & Gulbahar, Z. (2022). Features Of the Formation of a System of Social and Value Orientations of Women. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 4, 1-3.
12. Сеитова, З. (2024). НАЛИЧИЕ ГЕНДЕРНО-УЩЕРБНЫХ СТЕРЕОТИПОВ В УСЛОВИЯХ ЮЖНОГО ПРИАРАЛЬЯ. Academic research in educational sciences, (3), 537-542.
13. Pirzhanovna, S. Z. (2023). SOCIAL TRANSFORMATIONS AND CHANGES IN THE MINDS OF WOMEN. QUALITY OF TEACHER EDUCATION UNDER MODERN CHALLENGES, 1(1), 225-232.
14. Сеитова, З. П. (2023). КОМПОНЕНТЫ ГЕНДЕРНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ДИФФЕРЕНЦИАЦИИ РЕСПУБЛИКА КАРАКАЛПАКСТАН. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(14), 342-351.

15. ZP, S. (2023). Social Transformations and Changes in The Minds of Women. Journal of Advanced Zoology, 44.

16. Сеитова, З. П. (2021). ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. Экономика и социум, (3-2 (82)), 352-355.

17. Pirjanovna, S. Z., & Aytbaevna, S. G. (2020). ECOLOGICAL ISSUES IN THE PHILOSOPHICAL THEORIES OF KARAKALPAK THINKERS. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 4206-4212.

18. Сеитова, З. П. ВОПРОСЫ САМОИДЕНТИФИКАЦИИ ЖЕНЩИН В СОЦИОЛОГИЧЕСКОМ ИЗМЕРЕНИИ. ILM SARCHASHMALARI, 185. Pirjanovna, S. Z. (2021). A democratic society is the spokesman for the people's, national will. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 1088-1091.

19. Egamberdiyeva, D., & Kuchkorova, K. (2023). Development of methodological programs in a foreign language. Interpretation and researches, 1(9).

20. Egamberdiyeva, D., & Uzokboyeva, D. (2023). METHODS OF TEACHING SPEECH ETIQUETTE IN ENGLISH LESSONS. Interpretation and researches, 1(9).